

KELAJAKKA HISSA QO'SHGAN 80 YILLIK MAKTAB TARIXI

Buxoro davlat pedagogika instituti 2Tar-23 guruh talabasi

Qorako'l tumani 33-maktab tarix fan o'qituvchisi

Ramazonova Guldona Odiljon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyati Qorako'l tumanida joylashgan 33-umumiy o'rta ta'lim maktabining 80 yillik tarixni bosib o'tgan yo'li va hozirgi kundagi rivoji, uning rivojiga hissa qo'shgan va qo'shib kelayotgan ustozlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: 33-maktab; Ibn Sino; faxriy o'qituvchilar; 1947-yil; 80 yil tarix; o'tmish va kelajak; kelajak yoshlari; sarflangan umr; "Ta'lim to'grisida"gi qonun; tarix o'tmish kaliti; homiylar;

Biz o'tgan umrni doim ham chinorga qiyoslashimiz ham bejiz emas. Uning tag-tomiridagi ildizi bizga o'tmish va kelajak haqida o'rnak va ibrat bo'lishiga qiyoslab boramiz. Bu chinorni biz o'z navbatida Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi 33-maktabga qiyoslasak bo'ladi. Biz nima uchun bunday deymiz, o'z davrining ilk ilm dargohlaridan biri bo'lganligi, unda xizmat qilgan barcha o'tgan faxriylarimiz va nafaqadagi o'rnak bo'la oladigan ustozlarimizni, ularning kuchli bilimi, jonkuyarligi, sabri va matonati haqida ko'plab so'z olib borsak bo'ladi. "Tarix- o'tmish kaliti, biz yoshlar - kelajak egasi!" shiori so'zimizni boshlaymiz. Bir butun tarixni o'z ichiga olgan va kelajakni yaratib kelayotgan maktab uning fidoyi ustozlari haqida. Ushbu so'z olib borayotgan maktabimizni tarixiga bir nazar tashlasak. Buxoro viloyati Qorako'l tumanida joylashgan 33-umumta'lim maktabi dastlab 1947-yil Ibn Sino nomi bilan nom qo'yilib o'z faoliyatini boshlaydi. Sobiq sovet davrida o'zbek yoshlarini ta'lim olishi ularni bilimli qilish savodini oshirish ancha ko'p vaqt va mashaqqat ta'lab etgani tarixdan ayon. Ikkinchi jahon urushi SSSR uchun ko'plab talofatlarga olib keldi va bu o'z navbatida yangi ibtido boshlanishiga turtki bo'ldi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekisto SSR davrida ta'lim olish dastlab 1929-1930-yillarda ilk marta urug' ota boshlaydi va buning natijasida 1940-yillardan keyin yana ham ko'payib e'tibor berila boshlagan edi. O'z o'rnida aytishimiz mumkinki bu maktab ham aynan shu davrda ta'lim olish savod chiqarish uchun qurilganligini. Dastlab bu maktabning

rivoji uchun hissa qo'shgan 10 dan ortiq o'qituvchilarning mehnatlari maktabning ildizini mustahkam qilishga xizmat qilgan. Ushbu o'qituvchilar qatoriga Mustog'ov Mamatquli; Bekpo'latov Jumaboy; Davlatova Ruqiya; Boqiyeva Hamro; Abdiqodirova Gulsara; Boymurodov Hamroquli; Imomova Oltin; Xayrullayeva Anorgul va boshqa shu kabi bilimli o'z davrining yetuk mutaxassisleri hisoblangan o'qituvchilar maktabning balki vatanimizning rivojlanishi uchun hissa qo'shganlar. Maktab hozirgacha bo'lgan davrda millionlab bitiruvchilarni ilm olishlari yetuk inson bo'lishlariga xizmat qilgan. Shu bilan 1991-yil 31- avgust mustaqilligimiz e'lon qilingandan keyin vatanimizda ta'limga yana ham ko'proq e'tibor berila boshlandi. 1992-yilgi "Ta'lim to'grisida" gi qonunga asosan maktablar(umumiy o'rta ta'lim muassalari) ga oid milliy ta'lim tizimini mustahkamlash va mustaqil yondashuvni rag'batlantirish; demokratik, insonparvar tamoyillar asosida ta'lim berish; o'quv dasturlari va boshqaruvda tanlov erkinligini ta'minlash kabi o'zgarishlar kiritiladi.¹ Bu maktablarga ko'proq e'tibor berilganligini ko'rsatadi. Davlatimiz tomonidan 2014-yil 2-sentabrdan maktabning bir qismi qayta qurilib jihozlanadi. Maktabning bu qismi 180- 190 o'rinli bo'lib keying yillarda ya'ni, maktabning ikkinchi qismi ham 120 o'rinli qilib qo'shimcha quriladi. Bu yerda faxriy ustozlarimizdan biri Adizov Rustam Abdusattorovich 35 yil davomida o'quvchilarga rus tili fanidan ta'lim berib kelmoqdalar. Ularni aytishicha bu yerda o'qigan ko'plab bitiruvchilar o'z kasblari va hunarlari bilan vatanimizning rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda ekanligini ta'kidlab o'ttilar. Hozrda maktabda kuchli ta'lim tartib-intizom olib borilayotganligi va o'quvchilarning bilimini oshirish, oliy ta'limga kirishlar sonining ko'pligi bu yerdagi rahbarlar va barcha ustozlarning mehnati tahsinga sazavor ekanligi ham e'tiborga loyiqdir deb aytishimiz mumkin. Maktab rahbariyati boshchiligidagi jamoa o'tgan yilgi sarhisob bo'yicha quyidagilarni ta'kidlab o'ttilar. 2024-2025- o'quv yili davomida jami 18 nafar bitiruvchilardan 12 nafari davlat oliy ta'lim muassalariga va qolgan o'quvchilar xususiylar oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirib maktabni yana ham tanitishga hissa qo'shganligi ham bir katta yutuq aslida. Shu o'rinda aytib o'tishimiz mumkin 2025-2026 o'quv yili uchun ham saxovatpesha insonlar homiyligida 10dan ortiq o'quvchilarga maktab o'quv qurollari

¹ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'grisida" gi qonun 1992-yil. Toshkent

va maktab formalari va ularni o'qishi uchun berilgan pul mablag'lari maktab rahbariyati tomonidan o'quvchilarga ularni ota-onalari ishtirokida topshirildi. Bu esa o'quvchilarni o'z navbatida yana ham ko'proq ta'limga e'tiborini kuchaytirishlariga yordam berdi deyishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkin maktab tarixi- bu nafaqat o'quv jarayonining rivoji, balki jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos ko'zgusidir. Mustaqillikdan keying davrda O'zbekistonda ta'lim tizimi chuqur islohotlar jarayonida o'tdi: yangi o'quv dasturlari, zamonaviy maktablar, Prezident va Temurbeklar maktablari kabi yangi turdagi ta'lim maskanlari barpo etildi. Bugungi islohotlar shuni ko'rsatadiki, maktablar kelajakni yaratuvchi eng muhim tayanch maskanlaridir. Shu qatorida "Kelajakka hissa qo'shish" deganda 80 yildan oshiq vaqt ta'lim bergan Qorako'l tumanidagi 33-umumta'lim maktabini aytishimiz joizdir. Demak, maktab tarixi- bu o'tmishdan meros, bugunning amaliyoti va ertaning istiqboli o'rtasidagi mustahkam ko'prikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1992-yil 2-iyul, yangi tahriri 2020-yil 23-sentabr). – Toshkent.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutqlari va farmonlari. – www.president.uz.
5. Maktab ta'limidagi islohotlarning yangi bosqichi. – 2025-yil 15-may.